

HALOLLIK NIMA?



Yo'q, ko'rmadim. Balki Munisa olgandir? U qizil rangni yaxshi ko'radi-ku.

Akmal, qalamimni kim oldi?
Ko'rmadingmi?



Yo'qolgan qalamim qizil rangli ekanini qayerdan bilding?



1. Qalamni aslida kim olgan? Buni qayerdan bildingiz?
2. Akmal to'g'ri ish qildimi?
3. Munisa Akmalning gapini eshitsa, qanday ahvolga tushar edi?
4. Yolg'on gapirib qo'ysangiz, o'zingizni qanday his qilasiz?
5. Kimdir sizni aldasa-chi?



Rostgo'ylik – inson uchun qadrlil bo'lgan fazilat. Doim haqiqatni gapirish, aytilgan so'zni bajarish rostgo'ylik deyiladi. Rostgo'y odamning tili ham, dili ham bir bo'ladi. Rostgo'y odam va'da bersa, albatta, bajaradi.

Ba'zan haqiqatni aytish juda qiyin bo'ladi. Rostgo'y bo'lish uchun inson jasur bo'lishi kerak.





Kichik guruhlarda savollarning javoblarini muhokama qiling. Fikringizni o'rtqlaringizga ayting.

rostgo'ylik

aldash

yolg'on

samimiylk

ayyorlik

g'urur

vijdon

sadoqat

1. Qaysi so'zlar rostgo'ylikka to'g'ri kelmaydi?
2. Topqirlik bilan aldashing farqi nimada?
3. "Aytgan so'ziga javob beradi" deganda nimani tushunasiz?



O'rtqlaringizga nimani maslahat bergan bo'lardingiz? Yomon maslahatlarni yaxshisiga almashtiring.

**Rost gapirishdan
qo'rqmang**

**Vijdoningizga quloq
soling**

**Uydagilar xavotir
olmasligi uchun ularga
yolg'on gapiring**

**Yoqib qolsa, birovning
narsasi bo'lsa ham
oling**

**Har qanday holatda
aybni birovlariga
to'nkang**

**Nohaqli bo'lsangiz,
xatongizni tan oling**

O'z fikringizni ayting

**Boshqalar haqida
yolg'on gapiring**



Maqollarni o'qib, mazmunini aytib bering.

**Kecha aldagan odamga
ertaga hech kim
ishonmay qo'yadi.**

**Yolg'onning oxiri
voy.**

Yolg'onning umri qisqa.



Bir odam noto'g'ri ish qilib qo'ysa, "To'g'risini aytaymi yoki indamay qo'yaveraymi?" – deb ikkilanib qoladi. Bunday paytda vijdon yordamga keladi. Vijdon insonga nima yaxshi-yu, nima yomonligini aytib turadigan ichki ovozdır.



**Guruhlarga bo'linib, uchta vaziyatni
muhokama qiling.**



3

- 1-vaziyat.** O'rtog'ingiz yangi velosiped olibdi. Minib ko'rish uchun sizga bergan edi, bilmasdan pedalini sindirib qo'ydingiz. Bu holatda siz nima qilasiz?
- 2-vaziyat.** Eng yaqin o'rtog'ingiz birovni aldaganini bilib qoldingiz. Qanday yo'l tutasiz?
- 3-vaziyat.** Birovning telefonini topib oldingiz. Siz anchadan beri orzu qilib yurgan telefon ekan. Nima qilasiz?





Halollik fazilati insonda bolalikdan shakllanadi. Halol odamni hamma hurmat qiladi, unga ishonadi. Halol odamlarning do'stlari ko'p bo'ladi. Bu fazilat kelajakda katta muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi.



Ertak qahramonlarini eslang. Ulardan qaysi biri nohaqlik qilgan? Sevimli qahramonlaringiz qanday fazilatlarga ega?



Zumrad va Qimmat



Karlson



Karabas-Barabas



Dono bola